

MOSH SELEKSIYASI: TADQIQOT, NATIJA VA XULOSA

Idrisov Xusanjon Abdujabborovich

q. x. f. f. d (PhD)

FarDU Mevachilik va sabzavotchilik kafedrası

Olimova Zulxumor Qaxramonjon qizi

FarDU Uzumchilik, mevachilik va sabzavotchilik qo'shma fakulteti
4-bosqich talabalari

Jo'rayeva Madinabonu Ma'rufjon qizi

FarDU Uzumchilik, mevachilik va sabzavotchilik qo'shma fakulteti
4-bosqich talabalari

Muxammadjonova Shukronaxon Shuxrat qizi

FarDU Uzumchilik, mevachilik va
sabzavotchilik qo'shma fakulteti 4-bosqich talabalari
Email; idrisovhusanzon@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada moshning seleksiya ko'chatzorida olib borilgan tadqiqot natijalari taxlil etilgan bo'lib, o'tkazilgan kuzatishlar va o'rganishlar asosida standart navga nisbatan morfobiologik va qimmatli xo'jalik belgilari bilan ajralib turuvchi nav namunalari DNS ga topshirilgan.

Kalit so'zlar; mosh, oqsil, seleksiya, standart, nav namuna, ko'chatzor, xosildorlik, biometriya

O'zbekistonda aholini oziq-ovqat maxsulotlari bilan ta'minlash muammosi tobora oshib bormoqda, chunki aholini ko'payishi bilan oziq-ovqat mahsuloti bilan ta'minlash imkoni kamayib bormoqda. Bu muammoni hal qilishda O'zbekiston davlati mustaqillikning birinchi yillaridan boshlab respublikamizda don yetishtirishga jiddiy e'tibor berib kelmoqda. Oqsilli don yetishtirishda mosh o'siligining ahamiyati kattadir. Mosh-loviyaning bir turi bo'lganligi uchun uning sistematikasi loviya asosida ko'rib chiqiladi. Phaseolus ning 200 dan ortik turi bo'lib, shulardan 20 turga yaqini madaniy, ekin sifatida foydalaniladi, qolganlari



yovvoyi turlaridir. Kelib chiqishi bo'yicha turlar ikki geografik guruxga bo'linadi: Amerikali va Osiyoli. Amerika guruxga qo'yidagi keng tarkalgan turlar kiradi: oddiy loviya (*Phaseolus vulgaris* L) poyasi tik yoki chirmashadigan. Dukkagida 3-5 urug' bo'ladi. 1000 urug' vazni 200-400 g. Urug' rangi turlicha, oqdan to'q; sariqkacha; ko'p gulli (*Phaseolus multiflorus* Lam) uzun chirmashadigan poyasi, oq; va qizil gullari, yirik urug'lari bor. 1000 urug' vazni 700-1200 g; o'tkir bargli (*Phaseolus lunatus* L) to'qsimon shaklida, keng, qisqa, yassi, dukkaklarida 2-3 urug'lari bor, tez yoriladi. Osiyo turlarining dukkaklari silindrik shaklida, tumshug'i yo'q, ko'p miqdordagi urug'lari bilan, 1000 urug'ining vazni 30-60 g. Osiyo guruxining turlaridan bittasi madaniy ekin sifatida ko'p tarqalgan oltin loviyasi (*Phaseolus aureus* Roxb)–O'rta Osiyoda mosh deb ataladi. Mosh (*Phaseolus aureus* Pip) bir yillik o'tsimon o'simlik.

Mosh seleksiyasining muxim yo'nalishi-tezpushar navlarni yaratish. Tezpusharlikni baholashda unib chiqishdan-gullashgacha bo'lgan davr asos qilib olinadi. Tezpushar navlarda u 35-45 kunni, gullashdan pishishgacha 35-40 kun. Tezpusharlik past xaroratga chidamli xususiyati bilan chambarchas bog'liq. Xaroratni qisqa muddatda 5 gradusdan 0°S gacha pasayishi aksariyat navlar o'simliklarning fiziologik faoliyatida chuqur o'zgarishlarga olib keladi. Natijada vegetatsiya davri uzayadi, mahsuldorlik pasayadi. Shuning uchun past xaroratga chidamli navlar yaratish seleksiyaning muxim vazifasiga kiradi. Mosh seleksiyasida yana bir xususiyatiga e'tibor qaratish lozim bu yuksak simbiotik faolli va yuqori mahsuldor, neytral fotoperiodik xususiyatli, mexanizatsiya usulida hosilni yig'ishtirishga mos, zamburug' va bakterial kasalliklarga immunitetli, yuqori kulinar, yaxshi ta'mli va oziqali xususiyatli navlarni yaratishdir. VIR kolleksiyasida qator kasalliklarga rezistentli (chidamli) shakllar-Robust navi mozaykaga, Sanilas - mozayka, antraknozga va bakterial kasalliklarga nisbatan chidamli Kormovaya 16, Gaga va Jules navlari bakteriozga chidamli, Xarkovskaya 4, Krasnodarskaya 244, Kishinevskaya shtambovaya unga nisbatan chidamli, Kormavaya 16, Vernl antraknozga, Belle, Motolskaya belaya, Xarkovskaya 4 zang kasalligiga, Yleames virus kasalliklariga chidamlidi

Kasalliklarga o'ta chidamli bulib Osiyoli turlarning namunalari hisoblanadi, ammo ular Amerikali loviya turlari bilan chatishmaydi. Xashoratlarga o'ta chidamli xususiyatga Thbeva va Xetogurovka 4, o'rtacha chidamli-Belosemyannaya frunzenskaya navlari ega. VIR kolleksiyasida loviyaning 14 turiining 7 ming namunalari mavjud. Loviya urug'ida oqsilning miqdori dukkakli rizobial simbioz



bilan, ya'ni o'simliklarni azot bilan ta'minlanganligi bilan bog'liq bo'lishi u o'z navbatida ekinni o'stirish sharoitiga bog'liq. Shu bilan birga mahalliy sharoitlarga moslashgan simbiotik faolligi yuqori bo'lgan va ko'p oqsil to'playdigan navlar mavjud. Masalan, Stepnaya 5 (28-29 %), Motolskaya belaya (27-29 %), Florida bolle (30%), Diogoin (30,4) navlari. Yakka tanlashda dalada eng yuqori mahsulotli, zamburug' kasalliklarga, virusli va bakterial kasalliklarga chidamli, dukkaklari baland joylashgan, yorilmaydigan o'simliklar tanlab olinadi. Xar bir o'simlikning urug'i seleksion ko'chatzorida alohida-alohida qilib ekiladi va yil davomida avlodlari o'rganilib eng yaxshilarining urug'i ajratib olinib nazorat ko'chatzorda dastlabki va konkurs nav sinashida o'rganiladi, sinaladi va ko'paytiriladi. O'zbekistonda mosh seleksiya ishlari natijasida Pobeda 104 va Zilola, Marjona, Qaxrabo, Navro'z, Radost navlari rayonlashtirilgan va Davlat reestriga kiritilgan.

Tajribalar O'zbekiston don, sholi va dukkakli ekinlar seleksiyasi va urug'chilik ilmiy tadqiqot stansiyasining Ilmiy elita Davlat xo'jaligi uchastkasi dalalarida olib borildi. Ilmiy elita davlat xo'jaligi Toshkent viloyatining janubiy sharqiy qismida, Toshkent shaxridan 15 km uzoqlikda Chirchiq daryosining chap qirg'og'ida geografik o'rni bo'yicha Grinvich shkalasida 69018' Sharqiy uzunlikda va 41020' Shimoliy kenglikdagi tekisliklarda joylashgan.

Tuproq qatlamlari vo'ha uchun harakterli bo'lib botqoq tipidagi to'proqlardir. Har xil chuqurlik qatlamlarida esa katta va kichik toshlar va qum aralashmalari ham mavjud. Ushbu tuproqlar daryoning chap qirg'og'idagi tipik ortiqcha namlik sharoitlaridan kelib chiqqan. Tajriba dalasining tuprog'i sho'rlanmagan, xaydov qatlami 30-40 sm. Tuproqdagi eritmalarning rN miqdori 6,8-7,3 birliklarida bo'lib, mexanik tarkibi bo'yicha og'ir loylidir.

Tajribalar 13 kartaning 1 chekida olib borildi. Toshkent viloyatining iqlimi ham keskin kontinental bo'lib, yozi nihoyatda issiq, qishi esa sovuq, hamda havosi quruq va tabiiy yog'ingarchiliklar o'simliklar o'sib rivojlanishi uchun nixoyatda kamligi bilan ta'riflanadi. Mosh seleksiyasi qishloq xo'jalik ekinlarining Davlat Nav Sinov komissiyasi va O'zShITI tomonidan ishlab chiqilgan tavsiyanomalar, dala tajriba metodikasi asosida olib borildi. Tajriba o'tkazilgan maydonlardagi agrotexnik tadbirlar institut olimlari tomonidan ishlab chiqarilgan, O'zbekistonda dukkakli don ekinlarini yetishtirish bo'yicha tavsiyanomasi asosida olib borildi va agrotexnik tadbirlar quyidagicha bajarildi. Tajriba maydonini 25-30 sm chuqurlikda kuzgi shudgorlandi. Bahorda yer mola, borona, chizel qilindi. Sifatli tozalangan va



saralangan urug'lar ekildi. Almashlab ekish tizimi qo'llanildi, o'tmishdosh ekin sholi. Ekish qo'lda o'z vaqtida muqobil muddatda o'tkazildi. O'simliklarda ko'chat qalinligi ta'minlandi. Sug'orish ishlari o'z vaqtida va me'yorida bajarildi. O'simliklarni begona, yovvoyi o'tlardan tozalash uchun 3 marta kultivatsiya va 2 marta chopiq ishlari bajarildi. Hosil o'z vaqtida yig'ib, quritib olindi va omborga topshirildi.

1-jadval

Mosh navlarining xosildorligi va oqsil miqdori

T/p	Nav nomi	Kelib chiqishi	Yillar			O'rtacha, s/ga	Oqsil, %
			2012	2013	2014		
St	Radost	O'zbekiston	20,6	23,8	37,5	27,3	23,4
1	414360	Filippin	28,2	24,6	36,4	29,7	24,5
2	412441	Filippin	28,1	26,4	36,7	30,4	25,5
3	430177	Afg'oniston	16,7	27,5	35,8	26,6	26,6
4	414361	Hindiston	30,6	22,8	35,0	29,5	28,3

2012-2014 yillarda jahon kolleksiya nav namunalaridan tashkil topgan kolleksiya ko'chatzorida yillar bo'yicha moshning 432 ta nav namunasi tadqiq qilindi. Nazorat sifatida taqqoslash uchun Respublikamizda rayonlashtirilgan «Radost» navi ekildi. Bu ko'chatzorda moshning ertapishar, o'rtapishar va kechpishar navlari ajratildi. 2012-2014 yillarda seleksiya ko'chatzorida moshning 93 ta nav namunasi ekib o'rganildi. Fenologik kuzatuvlar O'zShITI tomonidan ishlab chiqilgan tavsiyanomalar asosida olib borildi va olingan natijalariga ko'ra seleksiya ko'chatzorida 6 ta nav namunalar tanlab olindi. Nazorat ko'chatzorida 2012-2014 yillari 72 ta namuna o'rganildi. O'simlikning o'suv davrida fenologik kuzatishlar olib borilib, morfologik va biologik ko'rsatkichlariga baho berildi va 12 ta nav namuna ajratib olindi. Nav tanlov ko'chatzorida 2012-2014 yillarda 16 ta nav-namuna sinab o'rganildi.

Xulosalar

- 1.Oqsil miqdorining yuqori bo'lganligi tufayli moshning 414361 (Hindiston) namunasi seleksiya ishida manba sifatida tavsiya etiladi.
- 2.Hosildorligi bo'yicha 414360 va 412441 (Filippin) namunalari seleksiya ishlariga tavsiya etiladi
- 3.Moshning Chirchiq (414361) navi DNS ga topshirildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Atabaeva X.N, Sattarov M.A, Idrisov X.A Sug'oriladigan maydonlarda mosh yetishtirishning intensiv texnologiyasi bo'yicha tavsiyanoma. Toshkent 2019
2. Zoxidov.A.Z, Ismoilov M.N Moshning oziqli qiymati. T."O'zbekiston". 1984
3. Kogay.M.T Sug'oriladigan yerlarda don-dukkakli ekinlarni yetishtirish- "O'zbekiston" nashriyoti 1973
4. "Agro biznes" inform iqtisodiy-ijtimoiy jurnali. "Dukkakli ekinlar tuproq unumdorligini oshiradi". №07/90-2014y
5. Idrisov, X. A., & o'g'li soliyev, a. M. (2022, may). Sug 'oriladigan maydonlarda mosh (*Phaseolus aureus piper.*) Navlarining tavsifi. In international conferences on learning and teaching (vol. 1, no. 7, pp. 17-23).
6. Idrisov, X. A., Atabayeva, X. N. (2022, may). Loviya va mosh ekinlarining umumiy ahamiyati va biologik xususiyatlarini tahliliy o 'rganish. In international conferences on learning and teaching (vol. 1, no. 8, pp. 644-651).
7. Xalima, A., Xusanjon, I., & Abdulvosid, S. (2022). O 'tloqi-botqoq tuproqlar sharoitida mosh (*Phaseolus aureus piper*) ning o 'sishi, rivojlanishi va don hosildorligi. *Research and education*, 1(2), 373-381.
8. Xusanjon, I., & Abduxolik, K. (2022). Moshning yangi navlarini yaratishda seleksiya ko 'chatzorida o 'tkazilgan tadqiqotlar. *Research and education*, 1(4), 50-56.
9. Abdujabborovich, I. X., Ozodbek, A., Nodirbek, X., & Abrorbek, a. (2022). Sug 'oriladigan maydonlarda mosh (*Phaseolus aureus Piper*) navlarining simbiotik faoliyatiga ekish muddati va me 'yorining ta'sirini o 'rganish. *Science and innovation*, 1(1), 615-624.
10. Abdujabborovich, I. X., o'gli, u. X. I., qizi, a. D. A., qizi, y. M. N., & ogli, m. A. A. (2022). Tipik bo'z tuproqlar sharoitida mosh (*Phaseolus aureus Piper*) navlarini tadqiq etish. *Science and innovation*, 1(d2), 160-165.
11. Abdujabborovich, i. X. (2022). Qozoqi anorning biologik xususiyatlari. *Models and methods for increasing the efficiency of innovative research*, 2(13), 396-400.
12. Idrisov, X. A., & o'g'li Soliyev, a. M. (2022, may). Sug 'oriladigan maydonlarda soya etishtirish texnologiyasini takomillashtirish. In international conferences on learning and teaching (vol. 1, no. 7, pp. 286-295).
13. Abdujabborovich, i. X., & Gofurovna, r. F. (2022, may). Soya (*Glycine hispida* l) ning biologik xususiyatlari va tashqi muxit omillari. In e conference zone (pp. 1-5).

- 14 Abdujabborovich, i. X., & teshaboyev, a. (2022). Soyaning kolleksiya ko'chatzoridan samarali va maqsadli foydalanishning ilmiy axamiyati. *Science and innovation*, 1(d3), 286-290.
- 15 Abdujabborovich, i. X., & o'g'li, x. A. M. (2022). Sholi seleksiyasi bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot natijalarini tahliliy o'rganish. *Science and innovation*, 1(d3), 276-281.
- 16 Abdujabborovich, i. X., o'g, p. J. G. A., o'g'li, e. K. E., & o'g, d. O. N. M. (2022). Soyaning yangi navlarini yaratishda nav namunalaridan samarali va maqsadli foydalanishning ahamiyati. *Science and innovation*, 1(d3), 269-275.
- 17 Abdujabborovich, i. X., & Mirzamaksudavich, b. R. (2022). Soyaning yangi navlarini yaratish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar. *Science and innovation*, 1(1), 776-785.
- 18 Idrisov, x. A. (2022, june). Osiyo loviyasi-mosh (*phaselus aureus piper.*)—biologik xususiyatlari. In *international conferences on learning and teaching* (vol. 1, no. 9, pp. 144-148).
- 19 Abdujabborovich, i. X., o'gli, u. X. I., qizi, a. D. A., qizi, y. M. N., & ogli, m. A. A. (2022). Tipik bo'z tuproqlar sharoitida mosh (*rhaseolus aireus piper*) navlarini tadqiq etish. *Science and innovation*, 1(d2), 160-165.
- 20 Abdujabborovich, i. X., & teshaboyev, a. (2022). Soyaning kolleksiya ko'chatzoridan samarali va maqsadli foydalanishning ilmiy axamiyati. *Science and innovation*, 1(d3), 286-290.
- 21 Idrisov, x. A., & karimov, a. A. (2022, july). Mosh (*phaselus aureus piper.*) Dan yuqori hosil olishda agrotexnik omillarning ahamiyatimosh (*phaselus aureus piper.*) Dan yuqori hosil olishda agrotexnik omillarning ahamiyati. In *international conferences on learning and teaching* (vol. 1, no. 11, pp. 106-111).
- 22 Xusanjon, i., & abduxolik, k. (2022). Moshning yangi navlarini yaratishda seleksiya ko'chatzorida o'tkazilgan tadqiqotlar. *Research and education*, 1(4), 50-56.
- 23 Abdujabborovich, i. X., o'g, p. J. G. A., o'g'li, e. K. E., & o'g, d. O. N. M. (2022). Soyaning yangi navlarini yaratishda nav namunalaridan samarali va maqsadli foydalanishning ahamiyati. *Science and innovation*, 1(d3), 269-275.
- 24 Abdujabborovich, i. X., & mirzamaksudavich, b. R. (2022). Soyaning yangi navlarini yaratish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar. *Science and innovation*, 1(1), 776-785.

- 25 Idrisov, x. A., & o‘g‘li soliyev, a. M. (2022, may). Sug ‘oriladigan maydonlarda mosh (*phaselus aureus piper.*) Navlarining tavsifi. In international conferences on learning and teaching (vol. 1, no. 7, pp. 17-23).
31. Idrisov Xusanjon Abdujabborovich, Xalbaev Akbar Namozovich. (2022). Soyaning seleksiya ko‘chatzoridagi nav namunalari qimmatli-xo‘jalik xususiyatlarini o‘rganish. *Models and methods in modern science*, 1(12), 22–25. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7032183>.<https://doi.org/10.5281/zenodo.7032183>
32. Isag‘aliyev, M., Obidov, M., & Matholiqov, R. (2019). Morphogenetic and biogeochemical features of the medicinal *capparis spinosa*. *Scientific journal of the Fergana State University*, 2(4), 46-49. <https://scholar.google.com/citations>
33. Matholiqov, R. Argic dasturidan foydalangan holda qishloq xo‘jalik yerlarini tahliliy o‘rganish. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 2022 yil*. <https://scholar.google.com/citations>
34. Маматожиёв, Ш. И., Тожиаматов, Д. Д. У., Камолов, З. В. У., & Холиқов, М. Б. У. (2020). ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ПРОЦЕССЫ ХРАНЕНИЯ ЗЕРНА И НА ПОКАЗАТЕЛИ КАЧЕСТВА. *Universum: технические науки*, (12-4 (81)), 75-78.
35. Маматожиёв, Ш. И., Тожиаматов, Д. Д. У., Камолов, З. В. У., & Холиқов, М. Б. У. (2020). ПРЕИМУЩЕСТВА НОВОЙ СИСТЕМЫ ПРИ ПРИЕМКЕ ЗЕРНА. *Universum: технические науки*, (12-2 (81)), 96-99.
36. Davronov, Q. A., & Xoliqov, M. B.O‘, (2021). The effect of grain moisture on grain germination during grain storage. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* (11-5), 418-421.